

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI ORQALI KOGNITIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muhammadjonova Dinoraxon

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-24 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20228229>

**Annotatsiya:** Mazkur tezis maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin texnologiyalari orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda o'yin faoliyatining bolalar diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash, tafakkur va nutq jarayonlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning samaradorligi, ularni tizimli tashkil etish muammolari va zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot natijasida o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda ularning bolalarning har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, o'yin texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, diqqat, xotira, tafakkur, pedagogik yondashuv.

### Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich yosh davri bolalarning tafakkuri, xotirasi va diqqat jarayonlari jadal rivojlanadigan muhim bosqichdir. Shu davrda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish mumkin.

Bugungo kunda maktabgacha ta'lim tizimi inson shaxsi shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 5–6 va 6–7 yosh davrida bolalarning Kognitiv jarayonlari – idrok, tafakkur, e'tibor, xotira, tasavvur va muammoli fikrlash jadal rivoj topadi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur yosh oralig'ida o'yin bolalar rivojining asosiy mexanizmi bo'lib, u bilimlarni o'zlashtirishni tabiiy, Erkin va faol jarayon sifatida shakllantiradi.

Hozirgi kunda bolalarning ko'p qismi raqamli qurilmalar ta'sirida passiv qabul qiluvchi holatga o'tib bormoqda. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, muammo yechish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarining sust rivojlanishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida bolalarning diqqatini uzoq vaqt davomida ushlab turish muammosi ham mavjud. O'yin texnologiyalari esa ushbu muammolarni bartaraf etishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular bolalarning faolligini oshirib, bilimlarni oson o'zlashtirishga yordam beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish yetarli darajada tizimli yo'lga qo'yilmagan. Ko'pincha o'yinlar faqatgina dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari, pedagoglar tomonidan o'yinlarning kognitiv rivojlanishga ta'siri to'liq hisobga olinmayapti. Natijada bolalarda mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmayapti.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. Har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

• maftunkorlik; • kommunikativlik; • o'z imkoniyatlarini amalga oshirish; • tashxis; • o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot; • ijtimoiylashuvlik.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin texnologiyalari orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini o'rganish hamda

ularni maktabgacha ta'lim jarayoniga samarali joriy etishdan iborat. Shu bilan birga, o'yin faoliyatining bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini rivojlantirish va tafakkur jarayonlarini faollashtirishdagi o'rni aniqlanadi. Tadqiqot davomida o'yin texnologiyalarining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanish samaradorligi baholanib, ularni mashg'ulotlar jarayoniga moslashtirishning zamonaviy yondashuvlari ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, o'yinlar orqali bolalarda nutq rivoji, ijodkorlik, mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida o'yin texnologiyalaridan foydalanishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin texnologiyalari orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga samarali joriy etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: O'yin texnologiyalarining kognitiv rivojlanishga ta'sirini tahlil qilish; Diqqat, xotira va tafakkur jarayonlariga o'yinlarning ta'sirini aniqlash; O'yin asosida o'qitish metodlarini ishlab chiqish; Ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning samarali usullarini tavsiya etish.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, o'yin texnologiyalari boshlang'ich yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular orqali bolalarda diqqat, xotira, tafakkur va ijodiy fikrlash kabi muhim qobiliyatlar samarali shakllanadi. Shuningdek, o'yin asosidagi ta'lim bolalarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Amaliy tavsiyalar: Mashg'ulot jarayonida o'yin texnologiyalaridan muntazam foydalanish; Interfaol va rivojlantiruvchi o'yinlarni qo'llash; Har bir mavzuga mos o'yin metodlarini ishlab chiqish

### **References:**

1. «TA'LIM VA TARAQQIYOT» Jurnalida Fozilova Odina Nabiyevna
2. «YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR» Jurnalida Aliyeva Odila Madamin qizi, ISSN 3030-3494.
3. Qodirov, B. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – B. 78–95.
4. To'xtayeva, M. Bolalarda tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish. – T.: "Ilm ziyo", 2021. – B. 33–50.
5. Karimova, D. O'yin asosida o'qitish metodikasi. – T.: "Pedagogika", 2018. – B. 55–70.